

KAMBAG'ALLINI QISQARTIRISHDA DAVLAT IJTIMOY
SIYOSATINING SAMARADORLIGI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Fozilov Azizbek

fozilovazizbek2007@gmail.com

Zuvaydullayev Oybek

zubaydullayevo7@gmail.com

Annottatsiya: *Maqola iqtisodiy rivojlanish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiya loyihalari, ijtimoiy himoya tizimi va ta'lim tizimining ahamiyati tahlil qilingan. Moliyashtirish manbalari va ularni samarali boshqarish, shuningdek, xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish masalalarini ham ko'rib chiqilgan. Maqolada amalga oshirayotgan davlat dasturlari va ularning natijalari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'z: *O'zbekiston, aholi bandligi, kambag'allini qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, investitsiya loyihalari.*

KIRISH

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyashtirilishi mamlakatning barqaror rivojlanishidagi muhim masalalardan biridir. Kambag'allikni qisqartirish faqat iqtisodiy osish bilan emas, balki aholini himoyalash va resurslarga teng kirish imkoniyatlarini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqola ushbu murakkab va ko'p qirrali masalaning turli jihatlarini ko'rib chiqadi, kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash moliyashtirish zarurati, samaradorligi hamda bu boradagi xalqaro tajribalarga e'tibor qaratadi. Kambag'allikni qisqartirishning asosiy tamoyillardan biri bu iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholini kam taminlangan qatlamlariga resurslarni qayta taminlashdan iborat. Iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishda muhim ro'l o'ynaydi, chunki bu aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratadi va daromadlarni oshiradi. Biroq, iqtisodiy o'sishning o'zi yetarli emas. Aholining ijtimoiy himoyalash darajasini oshirish uchun davlat tomonidan ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlar vayordamlarning kengaytirilishi ham talab qilinadi. Ijtimoiy himoya tizimi kam bag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u aholining eng zaif qatlamlarini himoya qiladi va ularga asosiy ehtiyojlarini qondirishda zarur bo'lgan resurslarni taqdim etadi. Bunday tizim nafaqat iqtisodiy qiyinchilik vaqtida, balki oddiy kunlarda ham aholini qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy himoya choralari orasida pensiyalar, bolalar nafaqalari,



ishsizlik nafaqalari va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlari mavjud. Hukumatning kambag'allikni ko'p qirrali muommo sifatida tan olishi avvalambor makroiqtisodiy barqarorlikni ta'kidlagan oldingi yondashuvlardan o'zgargaganini ko'rsatadi. So'nggi yillarda kambag'allik pul daromadlaridantashqari ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy sharoitlari va ijtimoiy ishtirokni qamrab olish uchun qayta belgilanadi. Ushbu qayta yo'naltirish bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi strategiyalarida o'z ifodasini topdi, u boshqa vazirliklar, mahalliy hokimyat organlari va rivojlanish bo'yicha hamkorlar bilan hamkorlikda yanada kompleks yondashuvni qo'lladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan uyg'unlashgan kambag'allikni qisqartirish bo'yicha milliy strategiyaning qabul qilinishi siyosiy fikrlashda buriilish nuqtasi bo'ldi. Kambag'allikni faqat subsidiyalar orqali hal qilinishi kerak bo'lgan qoldiq muomo sifatida ko'rib chiqish o'rniga, strategiya imkoniyatlarini kengaytirish , inson kapitalini rivojlantirish va inklyuziv o'sishga urg'u beradi. N. Fayzullayev va S.Mayliyevalarning 2023-yilgi tadqiqotlarida kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi daromadlari oshirishda olib borilayotgan siyosatning dolzrbliigi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda davlat tomonidan aholi turmush tarzini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar va ularning samaradorligi yoritilgan. Mualliflar iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishi kambag'allikni kamaytirish uchun muhum omilni taminlaydi. G. Sultonovning 2024-yilgi tadqiqotida O'zbekiston kambag'allikni qisqartirishda siyosatining real ta'siri o'rganilgan. Muallif o'z tadqiqotida ijtimoiy ximoya tizimi va iqtisodiy barqarorlikni oshirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni tahlil qilib, ularning kambag'allikni qisqartirishga qanachalik hissa qo'shishini baholaydi. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish siyosatining kompleks yondashuv orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi.

R. Mahmudovning 2024-yilgi asarida kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy falsafiy masalalari keng yoritilgan.Tadqiqotda kambag'allik nafaqat iqtisodiy muomo, balki jamiyatning madaniy va ahloqiy rivojlanisgiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida qaraladi,. Muallif ijtimoiy ma'suliyat fuqarolik jamiyatining ro'li va davlat siyosatining ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Ushbu ishda aholining daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan davlat dasturlari va ularning amalga oshirish jarayonlari yoritilgan. Muallif iqtisodiy siyosatning har bir qatlami uchun alohida mehanizmlarni ishlab chiqish kerakligi taklif etadi. A. M. Asqarovning 2023-yilgi tadqiqotida kambag'allikni ijtimoiy- iqtisodiy muomo sifatida tahlil qilingan. Muallif iqtisodiy tengsizlikning ildizlarini o'rganib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilg'or tajribalarga murojat qilgan. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish



uchun nafaqat iqtisodiy choralar, balkin ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida ham izchil islohotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Yuqoridagi tadqiqotlar kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash sohasida ko'plab muhim jihatlarni qamrab olib, bu boradagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini tasdiqlaydi. Har bir asar kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan turli strategiyalar taklif etib bu, mumoning yechimiga kopleks yondashuv zarurligini ta'kidkaydi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqot natijalari kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalshtirish mehanizmlari samaradorligini baholashga asoslangan. Sifat va miqdoriy tahlil natijalariga kora , O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlar muhim natijalar beryotgani kuzatiladi. Statistika tahlillar ko'rsatadiki, O'zbekistonning ijtimoiy himoya sohasiga ajratilgan mablag'lar yildan yilga ortib botmoqda. Ko'rinib turibdiki ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hajmi 2020-yildan 2023-yilgacha 80% ga oshgan. Bu oshish davlatning kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga bolgan e'tiborni aks ettiradi. So'rovnoma o'tqazilgan respondentlarning 75 % ijtimoiy yordam dasturlaridan xabardor ekanligi va ulardan foydalanayotganini bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning 60% ijtimoiy yordam ularning turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilayotganini aks ettirgan. Statistika ma'lumotlarga ko'ra , O'zbekiston kambag'allik darajasini so'ngi yillarda sezilarli darajada kamaygan. 2020-yilda kambag'allik darajasi 11% ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 8% ni tashkil qiladi.

Komparativ tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan taqqoslaganda samarali bo'lmoqda. Nasalan, Qozog'iston va Qirg'iston kabi qo'shni davlatlarda ijtimoiy himoya dasturlariga ajratilgan mablag'lar O'zbekiston bilan solishtirilganda kamroq bo'lgan va kambag'allik darajasi pasdayishi sekinroq kuzatilgan.

Kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bu jarayonni amalga oshirish uchun bir nechta tamoyillarga amal qilish lozim. Birinchidan, iqtisodiy o'sishni taminlash orqali yangi ish o'rinlari yaratish va aholini datomadini oshirish talab etiladi. Iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishda asosiy omillari hisoblanadi, chunki bu yangi imkoniyatlar yaratadi va aholi uchun resurslar yetqazib beradi. Ikkinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini rivojlantirish va kengaytirish lozim. Bu tizim eng zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish va hayot sifatini oshirishga qaratilgan.



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan moliyalashtirish hajmi va samaradorligi yuqori. Davlat dasturlarining to'g'ri tashkil etilishi natijasida kambag'allik darajasi sezirali darajada kamaygan va ijtimoiy yordamning aholi turmush darajasiga ta'siri ijobiy bo'lgan. Biroq, so'rovnoma qayd etilganidek yordam dasturlarining qamrovini yanada kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish lozim. Shuningdek kambag'allikni qisqartirishda uzoq muddatli strategiyalarga ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi.

Taklif. Avvalo, mehnat bozorini rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish lozim. Xususiyl sektorida ish o'rinlari ko'paytirgan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari berish va kichik biznesni yengil foizli kreditlar orqali qo'llab-quvvatlash aholining bandligini oshiradi. Shuningdek aholining kasbiyl ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviyl kasb-hunar o'rgatish markazlarini ko'paytirish va bozor talab qilayotgan mutaxassisliklarni bo'yicha bepul yoki arzon o'quv kurslarini tashkil etish taklif etiladi. Bu esa aholini yuqori maoshli ish o'rinlariga yo'naltirishga yordam beradi.

Xulosa. Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiyl himolash davlat siyosatining muhim yo'nalishidan biridir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlash ijtimoiyl himoya tizimini rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari yaxshilash zarur. Moliyashtirish manbalari va ularni samarali boshqarish orqali ijtimoiyl himoya dasturlarining samaradorligini oshirish mumkin, Xalqaro tajribalar va moliyaviyl yordamlar O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiyl himoyalani sh darajasini oshirishda katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Bank — An Assessment of the Social Protection System in Uzbekistan (CODI joint report).

Qisqacha: O'zbekiston ijtimoiyl himoya tizimi va uning zaif/ kuchli tomonlari bo'yicha diagnostika.

2. UNDP & CERR — Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index Report (2023).

Qisqacha: Multidimensional (ko'p o'lchovli) kambag'allikni o'lchash va hududiy tahlillar (MPI pilot). O'zbekistonga moslangan muhim hisobot.

3. UNICEF & CERR — Uzbekistan Multidimensional Child Poverty Report (2023).



4. World Bank — Setting a National Poverty Line in Uzbekistan (P174603, 2021).

Qisqacha: Milliy kambag'allik chizig'i (poverty line)ni belgilash metodologiyasi va siyosiy tavsiyalar.

5. World Bank (global) — Poverty topic overview & reports (turli hisobotlar va blog maqolalar).

Qisqacha: Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xalqaro tajriba va metodologiyalar. O'rganish uchun muhim manba.

6. ILO/UNICEF/World Bank — Joint report on social protection in Uzbekistan (CODI-based assessment, 2020).

Qisqacha: Ijtimoiy himoya dasturlarining inventori va targ'ib etilayotgan islohotlar tahlili. (Milliy siyosat samaradorligini baholashda foydali.)

7. OECD — Poverty reduction and pro-poor growth / social policy guidance.

Qisqacha: Ijtimoiy siyosat va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xalqaro strategiyalar va baholash usullari.

8. Amartya Sen — Development as Freedom (1999).

Qisqacha: Taraqqiyot va kambag'allikni tushunish bo'yicha nazariy asoslar (iroda/huquq, imkoniyatlar yondashuvi). Nazariy tahlil uchun muhim manba.

9. Abhijit V. Banerjee & Esther Duflo — Poor Economics (2011).

Qisqacha: Kambag'allikka qarshi mikroskopik (tajribaviy, RCT) usullar; siyosatlarning samaradorligini mayda detallar bilan tekshirish misollari.

10. Jeffrey D. Sachs — The End of Poverty (2005).

11. Urazbekovna, T. K. (2024). ROLE OF PUBLIC POLICY IN CHANGES IN POPULATION INCOME. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(22), 316-321.

12. Ziyodullaev, N., & Ziyodullaeva, M. (2023). FINANCIAL LITERACY, INTERRELATIONSHIP OF POPULATION INCOME AND EXPENDITURE. Science and innovation, 2(B12), 881-887.

